

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14929002>

YE.KOROVAY IJODINING O‘ZBEKISTON RANGTASVIRI RIVOJIDAGI O‘RNI

Jamolova Dilnoza

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti

San’at nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asr birinchi yarmida ijod qilgan, O‘zbekiston rangtasviri rivojlanishida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan rassom Ye. Korovay ijodi, uning o‘ziga xos ijod yo‘li yoritib berilgan. Rassom asarlaridagi rang fakturalari, o‘ziga xosligi asarlari misolida o‘rganilib, o‘zbekiston rangtasviri rivojida makur rassomning o‘rni, ijodining bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlari:** tasviriy san’at, rangtasvir, grafika, avangard, fovizm, modernizm, portret, kolorit.*

Bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy tasviriy san’atini o‘rganishda, yangi tendensiyalarni tahlil qilishda avvalo, 1920-1930-yillar O‘zbekiston rangtasvirida shakllangan badiiy-uslubiy jarayonlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, O‘zbekiston milliy tasviriy san’at maktabining shakllanishida XX asr rangtasviri poydevor va yangi tendensiyalarning asosiy bosqichi hisoblanadi. Ilmiy ekspeditsiyalar natijasida o‘lkamizga rus rassomlarining ham kirib kelishi tasviriy san’atning rivojiga sabab bo‘ldi. Bunda S.Yudin, I.S.Kazakov, V.R.Razvadovskiyning xizmatlari katta bo‘ldi. Keyinchalik esa Turkistonga kirib kelgan avangardchi rassomlar ijod tasirida mahalliy rangtasvir rivojlanaishi davom etdi. XX asr boshlariga kelib yangi plastik g‘oyalar rivojlana boshlandi.

Mazkur ikki davrning vakillari Turkiston avangardiga asos solgan. Bu oqim uchun Sharq musavvirliqi, ayniqsa miniatyuraning Rus-Yevropa san’ati an’analari uyg‘unligi xosdir. I.Mazel, M.Kurzin, V.Ufimsev, N.Kashina, Ye.Korovay, N.Karayan, A.Volkov, A.Nikolayev (Usto Mo‘min), A.Isupovlar mazkur

yo'nalishning vakillari bo'lgan[1]. 1930-yillarga kelib A.Volkov va M.Kurzin rahbarligida ikkita asosiy brigadalar mavjud bo'lgan. A.Volkov brigadasi asosan avangar va milliy an'analarni uyg'unlashtirish asosida asarlar yaratgan bo'lsa, M.Kurzin brigadasi asosan kubizm, futurizm, suprematizm oqimlarida ijod qilgan bo'lib, mazkur guruh tarkibida N.Kashina, B.Ufimsev, Ye.Korovaylar ijod qilgan. Vaqt o'tishi bilan mazkur jarayonlar "Yangi Sharq ustalari", "Tash AXRR", "ARI-ZO", "Izofabrika" kabi turli guruhlar va birlashmalarning yo'nalishi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning har biri o'z yo'li bilan atrofdagi haqiqatni, bu yerda sodir bo'layotgan voqealarning dinamikasini o'zlashtirdi va o'zlarining badiiy talqinlarini topdi[2].

Mazkur davrda samarqandda ijod qilgan P.Benkov, V.Yeremyan, G.Nikitinlar bilan bir qatorda Ye.Korovayning ham ijodiy guruhi bo'lib, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan. Ye.Korovay ijodida G'arb san'ati modernizmi g'oyalarini Sharq madaniyati bilan uyg'unlashtirishga harakatni sezish mumkin.

Elena Ludvigovna Korovay 1900-yil 27-dekabrda (yangi uslub bo'yicha 1901-yil 9-yanvar) Voronejda tug'ilgan. Ota-onalari qizining tasviriy san'at bilan shug'ullanish istagini ko'rib, 1913-yilda Elena onasi bilan birgalikda Sankt-Peterburgga ko'chib o'tdi va gimnaziya o'qishga kirdi, keyin u o'sha paytda N.K.Rerix direktor bo'lgan San'atni rag'batlantirish imperatorlik jamiyati (1914-1917y) chizmachilik maktabida o'qishni boshladi. Mazkur maktabda ustozlari I.Ya.Bilibin va P.S.Naumova qo'lida tahsil olgan. Korovayning dastlabki asarlaridan biri "O'rmondagi ko'prik" (1916y) kartinasi bilan mashhur bo'lgan. Rassom ilk ijodiy davrlarida ham rus va xorijiy san'atni yaxshi bilishi va nozik estetik tuyg'usi bilan ajralib turgan. 1917-yilda Korovay oilasi Barnaulga ko'chib o'tdi va o'sha yerda Korovay san'atning yangi shakllarini izlash va tadbiq etish bilan shug'ullanadigan bir guruh chap qanot rassomlari V.N.Gulyaev, V.P. Markova, A.O.Nikulin va keyinchalik uning turmush o'rtog'i bo'lgan M.I.Kurzin bilan uchrashdi. Barnaul davrida u bir qator asarlar yaratadi. "Qizil fondagi pushti qo'g'irchoq" va "Qo'g'irchoqli natyurmort" (1920-yillar) kabilar. Ye.Korovay natyurmortlarida o'zining xayoliy olamini yaratadi.

Ulardagi kundalik hayot ajoyib va romantik tasvirlarga aylanadi. Uning asarlari o'zining bayramonaligi va rang kombinatsiyalarining nafisligi bilan o'ziga jalb qiladi.

1920-yillarning o'rtalaridan boshlab Ye.Korovay o'z faoliyatini Markaziy Osiyo bilan bog'ladi. Ashxobod, Toshkent, Buxoro, Samarqandga sayohat qilgan. Korovay Ulug' Vatan urushi tugaguniga qadar Samarqandda yashadi. 1933-yilda Ye.Korovay Rassomlar uyushmasining Samarqand bo'limini tashkil etishda qatnashib, uning faol a'zolaridan biriga aylanadi. Ye.Korovay birqator teatrlarda jumladan: Rus drama teatri, Hamza nomidagi Davlat o'zbek drama teatri, Hamid Olimjon nomidagi Davlat viloyat o'zbek musiqa va drama teatri, Samarqand shahridagi Yosh tomoshabinlar teatrida rassom bo'lib faoliyat yuritadi. Respublika va Butunittifoq ko'rgazmalarida o'z ijodiy ishlari bilan faol qatnashib keladi. "O'zGiz" nashriyotida chop etilgan bolalar kitoblari uchun illyustratsiyalar chizadi ("Ikki og'ayni", 1935 y va b.). Rassom grafika (qalam, tush, sangina) va rangtasvirda ko'plab asarlar yaratgan. Bular "Sobiq gettoda" (1932 y) mavzusidagi butun seriyalar, shuningdek, bir qator portretlar: "Avtoportret" (1933 y), "V.A.Josan portreti" (1934 y, Tretyakov galereyasi), "Qizining avtoportreti" (1938 y), shuningdek, O'zbekiston xalq rassomlari portretlari turkumini yaratadi.

Ye.Korovay ijodida asosiy mavzularni - ko'hna Samarqandning eski ko'chalari, uning aholisi – tikuvchilarn, bo'yoqchilar, ko'cha sartaroshlari, bozor manzaralari tashkil etadi. Kartinalardagi aholining turmush tarzi, urfodatlar, eski shahar hovlilari, etnik qiyofalar moviy, ko'k, pushti, kumushrang kulrang teksturalarda o'zgacha talqin etilgan. Uning 1930-yillarda ishlagan eng yaxshi ijodiy ishlari – "Pushti ayollar. Tong", "Sobiq gettoda" trilogiyasi: "Buxorolik duradgorlar", "Buxorolik tikuvchilar" va "Hunarmand bo'yoqchilar"dir. "Pushti ayollar. Tong" asarida Korovay tong saharda go'yo yerga tushib kelgan ayol farishtalar timsolini tasvirlagan. Endi yorishayotgan tong, tongi shafaqt, ayollarning pushti liboslari kartinaga o'zgacha rux va taassurot bag'ishlagan.

1930-yillarning ikkinchi yarmidagi "formalizmga qarshi kurash" kampaniyasi O'zbekistonga ham yetib bordi va atrof asta-sekin bo'shab bordi – do'stlarning ba'zilar hibsga olindi (Kurzin, Gulyaev, Usto Mo'min), ba'zilar keyinchalik urushda

halok bo‘ldi. Rassomlar uyushmasi fondiga tushgan Korovayning ko‘plab asarlari 1940-yillarning oxirida omborlarni “tozalash” paytida yo‘qolgan.[2]

Keyinchalik Ye.Korovay Moskvaga qaytib ketishga majbur bo‘ladi. Moskvada E.L. Korovay o‘yinchoqlar sohasida ishlagan, badiiy niqoblar yasagan. 1955-yilda u Favorskiyning Varshavadagi Sovet elchixonasi uchun mozaik panno ustida ishlagan, U bir qator portret va natyurmortlar yaratadi: “Galya Goyrahning apelsin bilan portreti” (1961), “Eski vazadagi Лопухи” (1967), “Sariq gul” (1966), “Xrizantemali kaktus”, “Begona”, “Oila portreti”, “Skameykadagi meva” (barchasi 1968 yil) va boshqalar. Bu asarlarda yozuv uslubi o‘zgaradi. Asarlardagi yorqin faktura kamaydi, konturlar keskinlashdi.

1960-yillarning boshlarida Samarqand san‘at muzeyi boloxonasidan rassom G.I.Ulko Korovay asarlarini rulon shaklida o‘ralgan holda topdi. Ulko rassomni shaxsan tanimasa ham, u rasmlarni Moskvaga ko‘rsatilgan manzilga yubordi. Shunday qilib, yo‘qolgan asarlar yigirma yildan so‘ng muallifga qaytadi. 1966 yilda Nukus shahridagi hozirgi mashhur Qoraqalpoq san‘at muzeyi asoschisi Igor Vitaliyevich Savitskiy E.Koravay oldiga shaxsan tashrif buyurdi va muzey uchun “Sobiq gettoda” turkumini va boshqa asarlarni sotib oldi. 1968-yilda Moskvada Sharq xalqlari san‘ati muzeyida “O‘zbekiston rassomlarining 1920-1930-yillardagi rangtasvir va grafikasi” ko‘rgazmasi tashkil etildi. Bir yil o‘tgach, 1969-yilda Korovay Moskva qishloq xo‘jaligi ittifoqiga qabul qilindi.

E.L.Korovayning asarlari Nukusdagi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat muzeyi, Davlat Tretyakov galereyasi, Moskvadagi davlat sharq san‘ati muzeyi, Barnauldagi Oltoy o‘lkasi davlat san‘at muzeyi, Samarqand, Omskdagi muzeylarida, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelinmoqda. Rassomning o‘zbekistonda yashab ijod qilgan davrlarida ishlangan asarlarini bir necha guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Rangtasvirda maishiy janr, portret janrlarida ijod qilgan bo‘lsa, grafikada: qalamtasvir, linogravyura, ksilografika, akvarelda salmoqli ijod qilgan. Uning lenogravyurada ishlangan “Ikki qiz “, “ikki yosh”, “Ayol,bola va ko‘za” (1928y), kselografikada “Illarion Golitsin.”1968y) asarlari, qalamtasvirda “M.Kurzin portreti”, “Buxoro, Labi

hovuz”, “Buxoro machit”, “Buxoro choyxona”, “Do‘ppili qiz”, akvarelda ishlangan “Ikki o‘zbek qizi”, “Bola”, “Bola va qiz. Buxoro yevreylari” va boshq bir qancha asarlari ishlash usuli va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning “Bo‘yoqchilar” (1931-32y), “Bozor”, “Tikuvchilar”, “Samarqand manzarasi”, “Samarqand sartaroshlari” kabi rangtasvir asarlari mashhurdir. Yangi davr qahramonlari – hurlikka erishgan ayolar, dala mehnatkashlari, ishchi vaziyolilar timsolini ochib beruvchi tipologik portretlarni 1920-1930 yillar rangtasviridagi ustuvor tamoyillardan biri sifatida ajratish lozim. Bu davrda A.Volkov, O‘Tansiqboyev, N.Karaxan, A.Podkovirov, shuningdek, O.Tatevosyan, M.Kurzin, Ye.Korovay, A.Sidqiy, V.Markova kabi rassomlar zamondoshlar portretini yaratishda avangart oqimlari hamda milliy meros bilan aloqador dekorativ talqin shakillaridan keng foydalangan[4]. Ye. Korovay portret janrida ham bir qator asarlar yaratgan bo‘lib ulardan “Ayol portrti”, “Faridaning qizil rangdagi portreti”, “Fotima portreti”, “Rassom portreti”, “Avtoportret” kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Rassom ko‘plab avtoportretlar yaratgan bo‘lib, 1920-1930 yillar jamiyatda yuz bergan murakkab o‘zgarishlar jarayonida avtoportret boshqa rassomlar singari Ye.Korovay uchun ham o‘z-o‘zini idrok etishning badiiy vositasi sifatida xizmat qilgan. 1930-yillarga kelib rangtasvirida kolxozchilar, ishchilar, ziyolilar qiyofalarini yaratish dolzarb mavzulardan biriga alanadi. Mazkur davrda Ye.korovay tomonidan yaratilgan “H.Murodovning oilasi”, “Usta” portretlari o‘ziga xos bo‘lib, umumlashtirilgan obrazlar talqini, ekspressiv talqin usuli, orazlardagi ruhiy qarama-qarshiliklari bilan ahamiyatlidir.

Ye. Korovay qaysysi janrda ijod qilmasin uning asarlarida yorqin ranglar ohangi, kuchli koloristik mahorati ustunlik qiladi. Rassom asardagi asosiy g‘oyalarni soda chizmalar va yorqin ranglar uyg‘unligida ochib berishga urunadi. Aynan rassomning o‘ziga xosligi ham shunda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda uning asarlar muzeylardagi qimmatli ijod namunalardan hisoblanishi bejizga emasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimkulova.D. 1920-1930 yillar rangtasviri O‘zbekiston tasviriy san’atining rivojlanish jarayoni kesimida // Monografiya. T, 2020 y. -196 b
2. “Bizning merosimiz” jurnali, 2009 yil, 89-son <https://www.trv-science.ru/2014/01/elena-korovajj-khudozhnik/>
3. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Ташкент, 2004. – 224 с.
4. A.Imomov. O‘zbekiston rangtasvirida portret janrining shakillanish xususiyatlari. Avtoreferat. T, 2022 y.
5. KULTASHEVA, N. (2019). SOME ASPEKTS OF PORTRAIT GEME OF UZBEKISTAN EARLY XX CENTURY. *Culture and Arts of Central Asia*, 11(1), 80-84.
6. KULTASHEVA, N. (2022). BAYAT MUKHTAROV AND HIS PLASTIC INNOVATIONS. *Art and Design: Social Science*, 2(01), 6-8.